

• *Yorqin fikr*

KITOB O'QISH MADANIYATI

Bugungi globallashuv davrida inson tafakkuri, bilimi va madaniy darajasining yuksalishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omil-laridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Inson tafakkurini boyitadigan, uning ma'naviy olamini charog'on etadigan eng muhim manba bu – kitobdir. Aynan shu bois kitob o'qish madaniyati har qanday jamiyatda doimiy e'tiborda bo'lishi zarur.

Kitob o'qish madaniyati deganda insonning kitobga bo'lgan munosabati, uni ehtiyoj sifatida qabul qilishi, tanlab o'qishi, mazmunini anglab yetib, hayotiga tatbiq eta olishi tushuniladi. Bu madaniyat nafaqat ma'lum bir bilimni egallash, balki tafakkurni kengaytirish, ma'naviyatni boyitish, nutq madaniyatini rivojlantirish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Har qanday taraqqiy etgan jamiyatda kitob va kutubxonaga bo'lgan e'tibor yuksak darajada bo'ladi. Chunki bilimli, tafakkurli, madaniyatli avlodni voyaga



yetkazish uchun, eng avvalo, ularning kitob bilan do'stligini mustahkamlash zarur. Buyuk mutafakkirlarimizdan Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalar ijodini vazaqlagan insonlar ma'naviy kamolot sari dadil qadam tashlash imkoniga ega bo'ladilar. Zamonaviy davrda texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning suslashgani kuzatilmoqda. Ammo bu holat hech qachon kitobning o'rmini bosolmaydi. Chunki virtual axborot ko'pincha yuzaki bo'lsa, kitob esa, tafakkur quvvati, sabr, idrok,

tahlil va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kitob – bu yurak va ong ozuqasi. U insonni yuksak axloqiy mezonlarga olib boradi, uni fikrda mustaqil, so'zda mo'tadil, amalda bilimli qiladi. Aynan shu sababli ham kitob o'qish madaniyati har bir oila, har bir ta'lim muassasasi va butun jamiyat miqyosida targ'ib qilinishi kerak. Shunday ekan, har birimiz, avvalo, o'zimizdan boshlab atrofimizdagilarda

ki-tob o'qishga nisbatan joriy munosabatni shakllantirishimiz lozim. Farzandlarimizga bolalikdan kitobga mehr uyg'otaylik, oila davrlarida kitobxonlik an'analarini yo'lga qo'yaylik, maktab va kutubxonalarimizni kitobsevar yoshlar bilan to'ldiraylik.

Xulosa shuki, kitob o'qish madaniyati faqat bilim olish vositasi emas, balki millatning ma'naviy qiyofasi, madaniy darajasi, kelajak taraqqiyotining kafolatidir. Kitob o'qigan xalq og'li, ma'rifatli va taraqqiyot sari intiluvchan xalqdir.

Shahzoda HAYDAROVA,

Axborot-kutubxonamarkazi xodimasi